

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**II RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

YANVAR, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, yanvar

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 2-son (yanvar, 2026-yil).– 343 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 22-yanvar

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Abdulbositova Muborak

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR 9-11

Anvarbekova Ruxsora

DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI YECHISHDA PYTHON KUTUBXONALARINING
IMKONIYATLARI 12-14

KIMYO FANLARI

Kosimova Zuxra

OKSIDLANISH STRESSI VA UNING TROMBOSITLAR FAOLIYATIGA TA'SIRI 15-18

Xoshimov Nozimjon, Kosimova Zuxra

ORGANIZMDAGI OKSIDLANISH STRESS HOLATIDA POLIFENOLLARNING ROLI 19-22

BIOLOGIYA FANLARI

Shertoyeva Risliqoy, Mavlanova Sadbarxon

O'ZBEKISTONNING SHARQIY MINTAQASIDA (NAMANGAN) YASHOVCHI 7–16 YOSHLI
BOLALAR VA O'SMIRLARDA KO'RISH CHAQRILGAN POTENSIALLARINING YOSHGA XOS
NORMATIV KO'RSATKICHLARI 23-25

TEXNIKA FANLARI

Qurbonov Mahmudjon, Umarov Abdusalam, Kuchkarov Khoshimjon, Khursanova Odina

STRUCTURAL FEATURES OF POLYAMIDE 6 WITH INCLUSIONS OF IRON OXIDE
NANOPARTICLES 26-38

Valixonov Ilyosbek

KOMPYUTERLI KO'RISH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA IMO-ISHORA TILINI MATNGA
O'GIRISH TIZIMLARINI TADQIQ ETISH 39-42

Qurbonov Mahmudjon, Kuchkarov Khoshimjon, Umarov Abdusalam

WITH STRUCTURE FORMATION AND THE STRUCTURAL COMPOSITION OF THE
COMPOSITION BASED ON POLYAMIDE WITH IRON OXIDE NANOPARTICLES 43-53

TARIX FANLARI

Nurullayeva Nabira

ISLOHATLAR, YARATILGAN IMKONIYATLAR – XOTIN-QIZLAR UCHUN IMKONIYAT
ESHIGI 54-56

Yuldashev Ulugbek

O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHI TARIXI 57-60

To'ychiyeva Dilnoza, Ergasheva Go'zal

ZOMIN TUMANIDAGI TURIZM TARMOQLARINING RIVOJI XUSUSIDA 61-64

Мирзамидинова Шахноза

ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРОБЛЕМАМИ ЯЗЫКА И
ОРФОГРАФИИ, В ПУБЛИЦИСТИКЕ АШУРАЛИ ЗОХИРИ 65-67

Raxmatov Xayrulla

BUXORO VOHASI MA'MURIY-HUDUDIIY BIRLIKLARI VA AHOLISI (XIX ASRNING SO'NGGI
CHORAGI – XX ASR BOSHLARIDA) 68-71

IQTISODIYOT FANLAR

Yusupov Nurillo

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA BOSHQARUV FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI 72-76

Mehmonova Shodiyonaxon

SHHT DOIRASIDA IQTISODIY HAMKORLIKNING RIVOJLANISHI VA UNING O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTIGA TA'SIRI 77-80

Ibadullaeva Shokhida

EXPERIENCES OF DEVELOPED COUNTRIES IN APPLYING MARKETING STRATEGIES IN
EXPORTING ENTERPRISES 81-87

Yusupov Nurillo

KORXONALARNING BOSHQARUV TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASH
USULLARI 88-92

FALSAFA FANLARI

Rahmatullayev Mardonbek

KIBER MAKONDA SHAXSIY VA JAMOAVIY ERKINLIKNI MUVOZANATLASH
STRATEGIYALARI 93-96

Nabiyev Sherzodjon

DIGITAL DUNYODA YOSHLAR SHAXSIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI
MUAMMOLAR 97-102

Saydaliyev Ilyosbek

MURAKKAB MUHITDAN KELGAN YOSHLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI
SHAKLLANTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATINING IJTIMOY-FALSAFIY RO'LI 103-106

Meliboev Azizjon

YANGI O'ZBEKISTONDA SIFATLI TA'LIM ORQALI KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASH VA
XALQ FAROVONLIGINI TA'MINLASH 107-111

FILOLOGIYA FANLARI

Aminov Farrux

INGLIZ VA O'ZBEK OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA AXBOROT UZATISHNING
MULTIMODAL STRATEGIYALARI VA KOGNITIV MEKANIZMLARI 112-119

Jo'rayeva Madinaxon

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR: O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI VA SUN'IY INTELLEKT SOHASIDAGI INNOVATSIYALAR
MISOLIDA 120-124

Isakova Barchinoy

JEK LONDONNING "MARTIN IDEN" HAMDA O'TKIR HOSHI MOVNING "NUR BORKI, SOYA
BOR" ROMANLARIDAGI POETIK VOSITALAR TAHLILI 125-128

Азизова Насиба

ИССЛЕДОВАНИЕ КОНЦЕПТА ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ
КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ А. С. ПУШКИНА, Н. В. ГОГОЛЯ И Л. Н.
ТОЛСТОГО АЛИШЕРА НАВОИ, ЗАХИРИДДИНА БАБУРА) 129-134

Toshboyeva Odinaxon

INGLIZ VA O'ZBEK INTERNET GAZETA SARLAVHALARIDA LEKSIK-SEMANTIK VA SINTAKTIK
VOSITALAR ASOSIDA PRAGMATIK PRESUPPOZITSIYANING IFODALANISHI 135-138

<i>Umirzakova Dilnoza</i> ANIMATSION FILMLAR TARJIMASIDA LINGVOPRAGMATIK OMILLAR: QIYOSIY TADQIQOT	139-144
<i>Jabborova Aziza</i> SIYOSIY KOMMUNIKATSIYADA EVFEMIZMLARNING AUDITORIYAGA TA'SIRI	145-149
<i>Boykhanov Shukhratjon</i> UNDERSTANDING ENGLISH PROVERBS: LEXICAL, STYLISTIC, PSYCHOLOGICAL, AND PRAGMATIC DIFFICULTIES	150-155
<i>Narzulloyeva Maftuna</i> A COMPARATIVE ANALYSIS OF OFFICIAL LETTERS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	156-158
<i>Abdullayeva Dildora</i> QUTADG'U BILIG FRAZELOGIZMLARINING SEMANTIK-PRAGMATIK TABIATI VA LISONIY TADQIQI	159-162
<i>Umrzaqov Islomjon</i> "JANUB RENESSANSI" DAVRI ASARLARIDA BADIY MAKON VA ZAMON POETIKASI	163-165
<i>Fayzullayeva Nozima</i> YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR	166-168
<i>Ergashev Nodirbek</i> SOCIAL INJUSTICE AND MORAL VALUES IN "OLIVER TWIST" BY CHARLES DICKENS	169-171
<i>Ubaydullaeva Dilfuza</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI (IJTIMOIY-GUMANITAR YO'NALISHDA)	172-178
GEOGRAFIYA FANLARI	
<i>Umarov Javohir</i> FARG'ONA VILOYATI YER RESURSLARIDAN QISHLOQ XO'JALIGIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	179-185
YURIDIK FANLAR	
<i>Hakimboyeva Dildora</i> ELEKTRON HUKUMAT VA MA'MURIY HUQUQ MUNOSABATLARINING TRANSFORMATSIYASI	186-188
<i>Самигжонов Зилола</i> МЕЖДУНАРОДНЫЕ НОРМЫ, РЕГУЛИРУЮЩИЕ ЗАЩИТУ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В СЕТИ ИНТЕРНЕТ	189-195
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Xomidjonov Abrorjon</i> OLIY VA PROFESSIONAL TA'LIMDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISH TAJRIBASI	196-202

<i>Sodiqova Gulnora</i> KASBIY TA'LIM TIZIMIDA ISH BERUVCHILAR BILAN SAMARALI KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARI	203-208
<i>Soliyeva Gavharoy</i> "HISOBLASH USULLARI" FANI BO'YICHA O'QUV KONTENTI	209-212
<i>Isaqov Abduvohid</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA METODIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH: ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	213-217
<i>Юсупова Наргиза, Юсупов Дильшод</i> ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ ЮНЫХ ТАЭКВОНДИСТОВ: АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВ РАЗВИТИЯ	218-221
<i>Ganiyev Elyorbek</i> TALABALARDA HUQUQIY TAFAKKUR VA TAHLILY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODIKASI	222-226
<i>Xabibullayev Alimardon</i> TALABALAR MOBILLIGI VA QO'SHMA TA'LIM ASOSIDA INNOVATSION VA BARQAROR RIVOJLANISH MODELINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK- INSTITUTSIONAL ASOSLARI	227-233
<i>Nigmatova Nozimaxon</i> INGLIZ TILINI O'QITISHDA GENERATIV SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING XORIJIY AMALIYOTI VA PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	234-237
<i>Юсупова Наргиза</i> АНАЛИЗ БИОМЕХАНИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ АТАКУЮЩИХ ДЕЙСТВИЙ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ ТАЭКВОНДИСТОВ (WT)	238-241
<i>Abdullayeva Asila</i> O'ZBEKISTONNING SO'NGGI TARIXI VA FALSAFA FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK UYG'UNLIK	242-247
<i>Ergasheva Nigora</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNING METODIK VAZIFALARI	248-251
<i>Alimova Mashxuraxon</i> BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA TA'LIMI DARSLARIDA TABIIY MATERIALLARDAN BUYUMLAR TAYYORLASHDA KONSTRUKSIYALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	252-255
<i>G'ofurova Barnoxon</i> TALABALARINING KONSEPTUAL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA'LIMNING METODIK SHART-SHAROITLARI VA PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	256-260
<i>Axmedov Yodgorbek</i> ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEYLARI O'QUVCHILARINING MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATIDA TINKERCAD PLATFORMASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	261-263

<i>Qozaqova Munajat</i> MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANINI O'QITISHDA TALABALAR LOYIHALASH KO'NIKMASINI KO'RGAZMALILIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	264-267
<i>Парниева Айгуль</i> АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ СОВРЕМЕННОГО СТУДЕНТА	268-271
<i>Nosirova Shoiraxon</i> INGLIZ TILIDA KASBIY MULOQOT XULQINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI	272-278
<i>Azizova Mohiniso, G'ulomova Sevara</i> MAKTAB DARSLARIDA RA'NODOSHLILAR OILASINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH	279-281
<i>Jalilova Xolidaxon</i> METHODOLOGY FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF TEACHING ENGLISH USING WEBQUEST TECHNOLOGY	282-284
<i>Abduvaxobov Shohruhbek</i> MASOFADAN TA'LIM JARAYONIDA UCHRAYDIGAN AMALIY MASALALAR VA ULARNI BARTARAF ETISH BO'YICHA METODIK YONDASHUVLAR	285-287
<i>Аюпов Тимур</i> СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В ВУЗАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	288-290
<i>Tillayeva Nilufar</i> DIALOGIC PEDAGOGY IN ESL WRITING: THE ROLE OF SOCRATIC SEMINARS	291-294
<i>Sobirova Feruza</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA DARSNI REJALASHTIRISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	295-299
<i>Karimova Sadoqat</i> CONCEPTUAL AND METHODOLOGICAL APPROACHES TO TEACHING ENGLISH TO PRESCHOOL CHILDREN IN A MONTESSORI EDUCATIONAL ENVIRONMENT	300-302
<i>Солохиддинова Фазилятхон</i> МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНЫХ УЧЕБНЫХ ДЕЙСТВИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В АСПЕКТЕ РАЗВИТИЯ ГРАММАТИЧЕСКОГО ПОНЯТИЯ «ИМЯ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОЕ»	303-306
<i>Sayidova Nilufar</i> ZAMONAVIY MUZEY EKSPOZITSİYALARIDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING ILMIY - AMALIY AHAMIYATI	307-310
<i>Ne'matova Mahfuzaxon</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHISINING NUTQ FAOLIYATINI FAOL RIVOJLANTIRISHDA FE'L SO'Z TURKUMINING TUTGAN O'RNI	311-313

TIBBIYOT FANLARI

Sobirova Mavludaxon

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR314-316

Ахмаджонова Хуршидабону, Рустамова Шахиста

НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ИЗУЧЕНИЮ НАСЛЕДСТВЕННАЯ

ПРЕДРАСПОЛОЖЕННОСТЬ ВИРУСАМИ ГЕПАТИТА С (HCV) И В (HBV) НА

МОЛЕКУЛЯРНОМ УРОВНЕ317-322

Xoshimov Muslimbek, Karimjonov Jaloliddin, Inomov Kamoliddin, Izatullayeva Mohlaroyim

O'ZBEKISTONDA NEYRODEGENERATIV KASALLIKLARNING TARQALISH SABABLARI VA

NEYRODEGENERATIV KASALLIKLAR RIVOJLANISHIDA ASTROSITLARDAGI REAKTIV

O'ZGARISHLAR323-326

Мамарова Шодила, Инатуллаева Рано, Сотиболдиева Умида, Кодиржанов Жавохир

ВИТАМИН D: МЕТАБОЛИЗМ, БИОЛОГИЧЕСКАЯ РОЛЬ, ДЕФИЦИТ И

ПРОФИЛАКТИКА327-336

PSIXOLOGIYA FANLARI

Ismoilov Temurbek

VERBAL KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY VA IJTIMOY

KONTEKSTNING ROLI337-342

PSIXOLOGIYA FANLARI

VERBAL KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY VA IJTIMOY KONTEKSTNING ROLI

Ismoilov Temurbek Islomovich

Namangan davlat Ibrat nomidagi chet tillari instituti proffessori

Tel: +998 99 972 19 82

Annotatsiya. Tezisda verbal kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda madaniy va ijtimoiy kontekstning o'рни kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy diqqat markazida insonning og'zaki muloqot jarayonida til, madaniyat va ijtimoiy tajribaning o'zaro ta'sir mexanizmlari hamda ularning shaxsning kommunikativ salohiyatiga ta'siri yoritiladi. Verbal kommunikativ kompetensiya insonning nutqiy, semantik, pragmatik va madaniy jihatdan moslashuvchan bo'lishini taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, madaniy kontekst — bu shaxs nutqida ifodalangan ijtimoiy qadriyatlar, me'yorlar, nutq etiketi va ramziy tizimlarning yig'indisi bo'lib, u kommunikativ jarayonning mazmunini shakllantiradi. Ijtimoiy kontekst esa shaxsning ijtimoiy mavqei, rollari, ijtimoiy guruhdagi maqomi va kommunikatsiya holatiga mos strategiyalar tanlash qobiliyatini belgilaydi.

Kalit so'zlar: Verbal kommunikativ kompetensiya, madaniy kontekst, ijtimoiy kontekst, lingvokulturologiya, pragmatik kompetensiya, muloqot etiketi, nutq madaniyati, ijtimoiy kommunikatsiya, pedagogik muloqot, kontekstual yondashuv.

THE ROLE OF CULTURAL AND SOCIAL CONTEXT IN THE DEVELOPMENT OF VERBAL COMMUNICATIVE COMPETENCE

Ismoilov Temurbek Islamovich

Professor of the Namangan State Ibrat Institute of Foreign Languages

Annotation. The thesis comprehensively analyzes the role of cultural and social context in the development of verbal communicative competence. The main focus of the study is on the mechanisms of interaction of language, culture and social experience in the process of human verbal communication and their impact on the communicative potential of the individual. Verbal communicative competence requires a person to be speech, semantic, pragmatic and culturally flexible. From this point of view, cultural context is a set of social values, norms, speech etiquette and symbolic systems expressed in a person's speech, which forms the content of the communicative process. Social context determines the individual's social position, roles, status in a social group, and ability to choose strategies appropriate to the communication situation.

Keywords: Verbal communicative competence, cultural context, social context, linguoculturology, pragmatic competence, communication etiquette, speech culture, social communication, pedagogical communication, contextual approach.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymif-y2026v2i2/n70>

Kirish: Zamonaviy globallashuv sharoitida insonning shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biri — bu uning verbal kommunikativ kompetensiyasidir. Verbal kommunikativ kompetensiya faqatgina til bilish bilan cheklanmay, balki til vositasida o'z fikrini madaniy va ijtimoiy jihatdan to'g'ri ifoda etish, suhbatdoshni anglash, madaniy kontekstni to'g'ri talqin qilish va ijtimoiy vaziyatga mos nutq strategiyasini tanlay olish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Shu jihatdan, kommunikativ kompetensiya insonning madaniy ongini, ijtimoiy rollarini, axloqiy me'yorlarini hamda dunyoqarashini ifodalovchi murakkab ko'p qirrali tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri — yoshlarning til orqali madaniyatni anglash va uni muloqot jarayonida adekvat ifodalash

ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Verbal kommunikatsiya, aslida, insoniyat tarixining ilk bosqichlaridan boshlab madaniy taraqqiyotning eng muhim shakllaridan biri bo'lib kelgan. U orqali shaxs o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini, ijtimoiy tajribalarini va qadriyatlarini uzatgan. Shu boisdan verbal kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda madaniy kontekst va ijtimoiy kontekstning o'rni fundamental ahamiyat kasb etadi. Madaniy kontekst – bu tilning milliy-madaniy xususiyatlarini, xalqning tarixiy tajribasini, mentalitetini va dunyoqarashini ifodalovchi tizim bo'lsa, ijtimoiy kontekst insonning ijtimoiy muhitdagi mavqei, ijtimoiy rollari, muloqotdagi maqomi va ijtimoiy munosabatlarga mos xatti-harakatlarini belgilovchi maydondir. Demak, har bir nutqiy akt — bu madaniy va ijtimoiy omillarning murakkab o'zaro ta'siri natijasidir. Tilshunoslik, psixolingvistika va sotsiologiya fanlarida olib borilgan tadqiqotlar verbal kommunikativ kompetensiyaning shakllanishida madaniy va ijtimoiy omillar o'rtasidagi dialektik aloqadorlikni chuqur ochib beradi. Masalan, E. Hallning “High-context” va “Low-context” madaniyatlar nazariyasi shuni ko'rsatadiki, har bir xalqning kommunikativ xatti-harakatlari ularning madaniy qadriyatlari bilan bevosita bog'liq. Yuqori kontekstli madaniyatlarda (masalan, Yaponiya, Koreya, Xitoy) muloqotda ko'proq noverbal signallar, konnotatsiyalar, ramziy ifodalar muhim rol o'ynaydi, past kontekstli madaniyatlarda esa (masalan, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya) aniqlik, to'g'ridan-to'g'rilik va nutqiy ifoda ustuvorlik qiladi. Shunday ekan, shaxsning verbal kompetensiyasi u yashayotgan madaniy muhitda shakllanib, o'sha muhitning kommunikativ me'yorlariga asoslanadi. Shuningdek, J. Habermasning “Kommunikativ harakat nazariyasi” da ham madaniy va ijtimoiy kontekstlarning kommunikativ kompetensiyaga ta'siri chuqur tahlil qilingan. Habermas fikricha, kommunikatsiya – bu ijtimoiy ongning eng muhim shakli bo'lib, unda til vositasi orqali insonlar o'zaro anglashuvga erishadilar. Til — bu ijtimoiy hayotning normativ tizimidir. Shu sababli, kommunikativ kompetensiya faqat lingvistik emas, balki sotsiokultural kategoriya sifatida ham ko'riladi. Bu yondashuv, ayniqsa, ta'lim jarayonida, o'quvchilarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalasi markaziy o'ringa chiqmoqda. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglarning nutq madaniyatini, og'zaki muloqot ko'nikmalarini, madaniy moslashuvchanlikni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar zarur bo'lmoqda. Verbal kommunikativ kompetensiyaning rivoji o'qituvchining faqatgina til bilish darajasini emas, balki uning shaxsiy madaniy kapitalini, empatiya qobiliyatini, interaktiv muloqot strategiyalarini ham o'z ichiga oladi. Ta'lim jarayonida madaniy va ijtimoiy kontekstlarning hisobga olinmasligi esa muloqotdagi xatoliklar, tushunmovchiliklar, stereotiplar va madaniyatlararo nomuvofiqliklarga olib keladi. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarning ijtimoiy muhitini, madaniy qadriyatlarini inobatga olmasdan muloqot yuritisa, bu ularning kommunikativ faolligini pasaytiradi, o'z fikrini erkin ifoda etish imkoniyatini cheklaydi. Shu sababli, verbal kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayonida kontekstual yondashuv — ya'ni tilni madaniy va ijtimoiy kontekstda o'rganish tamoyili muhim o'rin tutadi. Verbal kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning nazariy asosi 20-asrning ikkinchi yarmida shakllangan kommunikativ til o'qitish modeli (Communicative Language Teaching – CLT)dan boshlanadi. Bu modelga ko'ra, til o'rganish jarayoni faqat grammatikani o'zlashtirish emas, balki til orqali ijtimoiy muloqotga kirishish, ma'no yaratish va madaniyatni o'rganish jarayonidir. Keyinchalik bu yondashuv G. Hymesning “Communicative Competence” konsepsiyasi, Dell Hymes va Canale & Swain larning kommunikativ kompetensiya modeli orqali

kengaytirildi. Ular kompetensiyani grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik jihatlariga ajratdilar[1]. Aynan sotsiolingvistik komponent shaxsning madaniy va ijtimoiy kontekstga mos ravishda nutq yuritish qobiliyatini ifodalaydi. Zamonaviy tilshunoslik va pedagogika fanida verbal kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalasi ko'p tarmoqli yo'nalishga aylandi. Masalan, sotsiokognitiv yondashuvda muloqot shaxsning ijtimoiy tajribasi, ijtimoiy o'rganish jarayoni sifatida talqin qilinadi[2]. Bu esa shuni ko'rsatadiki, har bir kommunikativ akt shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasini shakllantiradi va uni ijtimoiy tizimning faol a'zosi sifatida namoyon etadi. Shu bois verbal kommunikativ kompetensiyani o'rganishda ijtimoiy psixologiya, madaniyatshunoslik va tilshunoslikning integratsiyasi zarur hisoblanadi. Bugungi ta'lim amaliyotida verbal kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayoni axborot texnologiyalari, interaktiv metodlar, muloqotga yo'naltirilgan topshiriqlar va madaniy integratsiya asosida amalga oshirilmoqda. Masalan, "rol o'ynash" (role-play), "munozara", "intervyu", "madaniyatlararo dialog" kabi metodlar orqali o'quvchilarda nafaqat til malakasi, balki madaniy sezgirlik, empatik eshitish, ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalari shakllanadi. Madaniy va ijtimoiy kontekstlarning verbal kompetensiyaga ta'sirini o'rganish, shuningdek, global kommunikatsiya davrida tilning o'zgaruvchan tabiatini, yangi ijtimoiy tarmoqlar, media makon va raqamli muloqot shakllarining paydo bo'lishini ham e'tiborga olishni talab etadi. Internet tarmog'idagi kommunikatsiya o'ziga xos yangi kontekstlarni yaratadi, bu esa verbal ifodaning madaniy chegaralarini kengaytiradi. Shu sababli, kommunikativ kompetensiya endilikda faqat milliy doirada emas, balki transmadaniy darajada ham tahlil qilinmoqda[3]. Mazkur tezisda verbal kommunikativ kompetensiyaning madaniy va ijtimoiy kontekst bilan o'zaro bog'liqligi, uning shakllanish mexanizmlari, ta'lim jarayonidagi ahamiyati va metodologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda til, madaniyat va ijtimoiylik o'rtasidagi uzviylik asosida kommunikativ kompetensiyaning nazariy modeli ishlab chiqiladi.

Hozirgi davrda globallashuv, raqamli kommunikatsiya va madaniyatlararo integratsiya jarayonlari insoniyat taraqqiyotining eng muhim xususiyatlaridan biriga aylandi. Shu bilan birga, bu jarayonlar insonning o'zaro muloqot madaniyatiga, tilni ishlatish qobiliyatiga va kommunikativ kompetensiyasiga ilgari bo'lmagan darajada yangi talablarni qo'yimoqda. Ayniqsa, verbal kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda madaniy va ijtimoiy kontekstni hisobga olish masalasi bugungi kunda ta'lim, psixologiya, sotsiologiya, lingvistika va madaniyatshunoslik fanlarining kesishgan nuqtasida dolzarb ilmiy muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Zamonaviy jamiyatda kommunikatsiya shakllari nafaqat nutqiy, balki madaniy, sotsial va texnologik omillar bilan uzviy bog'langan holda rivojlanmoqda. Har bir muloqot jarayoni — bu ma'lum bir madaniy kontekstda amalga oshadigan ijtimoiy aktdir. Masalan, insonning qanday so'z tanlashi, ohangni qanday qo'llashi, kommunikatsiya davomida qanday nutq etiketi me'yorlariga amal qilishi — bularning barchasi uning madaniy muhitini va ijtimoiy tajribasini aks ettiradi[4]. Shu bois, tilni o'rganish yoki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida madaniy kontekstni e'tiborsiz qoldirish shaxslararo anglashmovchiliklar, madaniyatlararo tushunmovchiliklar va kommunikativ ziddiyatlarga sabab bo'ladi. Bugungi global dunyoda ingliz tili, rus tili, arab tili, xitoy tili kabi xalqaro tillarni o'rganish jarayonida ko'plab yoshlar grammatik va leksik jihatdan yetarlicha tayyor bo'lsalar-da, madaniy kontekstni tushunmagani uchun muloqotda tabiiylikni yo'qotadi. Masalan, ingliz tilida "How are you?" degan so'rov ko'pincha ijtimoiy etik formuladir, javob esa madaniy jihatdan qisqa va neytral bo'lishi kutiladi; o'zbek tilida esa hol-ahvol so'rash ko'proq samimiylik va tafsilot bilan

kechadi. Bunday farqlarni anglash verbal kommunikativ kompetensiyaning yadro elementidir. O'zbekistonning mustaqillikdan keyingi taraqqiyot bosqichida, ayniqsa, so'nggi yillarda ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, madaniyatlararo kompetensiyaning rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolikni shakllantirish kabi yo'nalishlar davlat siyosatining ustuvor vazifalari sifatida belgilandi. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da ham madaniy-ma'naviy kompetensiyaning rivojlantirish, til va muloqot madaniyatini oshirish yoshlarning raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim shart sifatida qayd etilgan[5]. Shu nuqtai nazardan, verbal kommunikativ kompetensiyaning madaniy va ijtimoiy kontekst bilan uyg'unlashtirib rivojlantirish — zamonaviy o'qituvchining asosiy professional sifati va pedagogik mahoratini belgilovchi mezon sifatida qaralmoqda. Raqamli kommunikatsiya vositalarining (ijtimoiy tarmoqlar, onlayn muloqot platformalari, sun'iy intellekt asosidagi chat tizimlari) keng tarqalishi insonlar o'rtasidagi verbal muloqotni yangi bosqichga olib chiqdi. Endilikda har bir shaxs nafaqat mahalliy madaniy muhit, balki global madaniy maydon ishtirokchisiga aylandi. Bu esa kommunikativ kompetensiyaning rivojlantirishda yangi muammolarni — madaniy sezgirlik, axborot madaniyati, onlayn etik me'yorlar, diskursiv tafovutlarni o'rganishni taqozo etmoqda[6]. Shu bois, madaniy va ijtimoiy kontekstni chuqur anglash verbal kommunikatsiyaning muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, jamiyatda madaniy xilma-xillikning ortib borishi, migratsion jarayonlarning faollashuvi, ta'lim muassasalarida turli millat va madaniyat vakillarining o'qishi natijasida madaniyatlararo kommunikatsiyaning samarali tashkil etish masalasi ham dolzarb bo'lib bormoqda. O'qituvchi, ayniqsa, ko'p madaniyatli muhitda ishlayotgan pedagog, turli madaniy kodlarni to'g'ri talqin eta olishi, o'quvchilar orasidagi kommunikativ farqlarni muvozanatlash, ijtimoiy inkluzivlikni ta'minlash uchun yetarli verbal kompetensiyaga ega bo'lishi zarur. Shuningdek, O'zbekistonning xalqaro ta'lim maydoniga integratsiyalashuvi, xorijiy universitetlar bilan qo'shma dasturlarning ochilishi, talabalar almashinuvi loyihalarining kengayishi ham yoshlarning madaniyatlararo muloqotda faol ishtirok etishini talab qilmoqda. Bunda verbal kommunikativ kompetensiya — nafaqat til bilish darajasini, balki ijtimoiy-madaniy tafakkur, moslashuvchanlik, etnokommunikativ sezgirlik kabi ko'nikmalarni ham qamrab oladi.

Zamonaviy ta'lim va kommunikatsiya sohasida verbal kommunikativ kompetensiyaning rivojlantirishda madaniy hamda ijtimoiy kontekstning o'rnini masalasi ko'plab xorijiy ilmiy maktablarda chuqur o'rganilmoqda. Ayniqsa, G'arb davlatlarida kommunikativ yondashuvning shakllanishi va rivojlanishi natijasida til o'qitish jarayonida madaniy va ijtimoiy komponentlarning integratsiyasi asosiy metodologik yo'nalishga aylangan[7]. Xorijiy tajribada verbal kommunikativ kompetensiyaning rivojlantirish nafaqat lingvistik tayyorgarlikni, balki shaxsning ijtimoiy va madaniy jihatdan yetuk bo'lishini, jamiyatdagi turli kommunikativ vaziyatlarga moslashuvchanlikni ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, Yevropa, AQSh, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning tajribasi alohida e'tiborga loyiq, chunki bu mamlakatlarda ta'lim siyosati va metodik yondashuvlar kommunikativ kompetensiyaning ijtimoiy-madaniy kontekst bilan bevosita bog'lashga yo'naltirilgan. Masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlarida kommunikativ kompetensiyaning rivojlantirish Yevropa Kengashining “Common European Framework of Reference for Languages (CEFR)” tizimi orqali yo'lga qo'yilgan bo'lib, unda tilni o'rganish faqat grammatik bilim emas, balki madaniyatni anglash, sotsiolingvistik me'yorlarni o'zlashtirish va ijtimoiy vaziyatga mos kommunikatsiya yuritish qobiliyati sifatida

talqin etiladi. Bu tizimda “sociocultural competence” atamasi asosiy elementlardan biri bo'lib, til o'rganuvchi shaxsning madaniy sezgirlik, stereotiplarga nisbatan tanqidiy yondashuv va madaniyatlararo anglashuvni rivojlantirishini nazarda tutadi. Xususan, Germaniya, Fransiya va Finlyandiyada ta'lim dasturlarida verbal kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun “madaniy kontekstli muloqot” (culture-based interaction) va “ijtimoiy rolli muloqot” (social role communication) mashg'ulotlariga katta e'tibor qaratiladi[8]. Amerika Qo'shma Shtatlarida esa kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish “communicative language teaching” (CLT) konsepsiyasi asosida amalga oshiriladi. Bu yondashuvning markazida shaxsning til orqali ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etish qobiliyatini shakllantirish g'oyasi turadi. AQShning yetakchi pedagogik universitetlari, xususan, Harvard va Stanford universitetlari tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy ta'lim modellarida verbal kompetensiya madaniy va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'langan kommunikativ tizim sifatida qaraladi. Bu yondashuvda talabalar nutq orqali ijtimoiy muammolarni muhokama qilish, madaniy qadriyatlarni taqqoslash, turli kontekstlarda muloqot strategiyalarini sinab ko'rish orqali o'z kompetensiyasini oshiradi. Shuningdek, AQShda “sociolinguistic awareness” — ya'ni ijtimoiy-lingvistik sezgirlikni rivojlantirish maxsus dars modullari orqali o'rgatiladi[9]. Bu modullarda talabalar nutqdagi ijtimoiy farqlar, gender, yosh, ijtimoiy maqom, etnik tafovutlarning kommunikativ ta'sirini tahlil qiladilar. Yaponiyada esa verbal kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish madaniy kontekstga chuqur bog'langan holda olib boriladi. Bu mamlakatda muloqot jarayonida “wa” (muvozanat, uyg'unlik) tamoyili ustuvor ahamiyatga ega. Shuning uchun ham Yaponiyada ta'lim jarayonida o'quvchilarga nafaqat so'z boyligini oshirish, balki muloqotda hurmat, noverbal ishoralarining ma'nosini anglash, suhbatdoshning ijtimoiy maqomiga mos so'zlashuv shaklini tanlash o'rgatiladi. Bu jarayon “keigo” tizimi orqali, ya'ni ijtimoiy maqomga qarab hurmat ifodalovchi nutq shakllari yordamida amalga oshiriladi. Natijada o'quvchi nafaqat tilni biladi, balki madaniyatni ham nutq orqali ifodalay oladi. Bu holat Yaponiyada verbal kommunikativ kompetensiyani nafaqat ta'lim, balki jamiyatdagi ijtimoiy uyg'unlikning asosi sifatida ko'rilishiga olib kelgan. Janubiy Koreya tajribasida esa verbal kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish milliy qadriyatlar bilan uyg'un holda olib boriladi. Ularning ta'lim konsepsiyasida “Insoniy muloqot madaniyati” (Inhwa communication culture) markaziy o'rinni egallaydi. Koreyada verbal muloqot shaxsning ijtimoiy burchi, axloqiy qadriyati va ijtimoiy mas'uliyatini ifodalovchi jarayon sifatida baholanadi. Shu sababli, koreys o'quv dasturlarida til o'rganish jarayonida ijtimoiy muloqot etiketlari, milliy qadriyatlar va madaniy ramzlar chuqur o'rgatiladi. Ularning ta'lim amaliyotida “madaniyatlararo dialog” mashg'ulotlari muhim o'rin tutadi, bunda o'quvchilar turli madaniyat vakillari bilan onlayn muloqotda bo'lib, o'z verbal kompetensiyalarini haqiqiy kommunikativ kontekstda sinovdan o'tkazadilar. Bu xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, verbal kommunikativ kompetensiya hech qachon faqat lingvistik bilimlar yig'indisi bo'la olmaydi[10]. U madaniy qadriyatlarni, ijtimoiy rollarni, milliy muloqot me'yorlarini, axloqiy mas'uliyatni va global kommunikatsion madaniyatni o'z ichiga olgan integrativ tizimdir. Bunday yondashuv O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ham muhim ahamiyatga ega, chunki mamlakat bugungi kunda xalqaro maydonda faol integratsiyalashayotgan, yosh avlodni raqobatbardosh, ochiq fikrli va madaniy sezgir shaxslar sifatida tarbiyalashni maqsad qilgan davlatdir. Shu bois, xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, verbal kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda madaniy va ijtimoiy kontekstni inobatga olish — bu global ta'limning ajralmas tamoyiliga aylangan. Shunday ekan, O'zbekiston ta'lim

amaliyotida ham xorijiy tajriba asosida madaniy kontekstli muloqot mashg'ulotlari, ijtimoiy rol o'yinlari, dialogik interfaol metodlar, madaniyatlararo tahlil va verbal kompetensiya diagnostikasi kabi yondashuvlarni keng joriy etish verbal kommunikativ kompetensiyaning rivojlantirishning eng samarali yo'nalishlaridan biri bo'lishi mumkin. Shu tarzda madaniy va ijtimoiy kontekst integratsiyasi yosh avlodning muloqot madaniyatini yuksaltirib, ularni milliy va global miqyosda muvaffaqiyatli kommunikatorlar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa: Verbal kommunikativ kompetensiyaning rivojlantirishida madaniy va ijtimoiy kontekstning o'zini hozirgi globallashtirish sharoitida inson faoliyatining barcha sohalarida, ayniqsa, ta'lim tizimida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki shaxsning muloqot madaniyati nafaqat uning lingvistik qobiliyatini, balki ijtimoiy moslashuvchanlik, madaniy sezgirlik va interaktiv fikrlash ko'nikmalarini ham belgilaydi. Bugungi kunda ta'lim sohasida verbal kompetensiyaning shakllantirish jarayoni shunchaki tilni o'rgatish emas, balki madaniyatlararo muloqotni samarali tashkil etish, ijtimoiy kontekstni anglash va turli ijtimoiy vaziyatlarga mos kommunikativ strategiyalarni ishlab chiqish jarayonidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Erkinovna, Y. D. (2025). PEDAGOGIK TA'LIMDA SHAXSGA YO 'NALTIRILGAN YONDASHUV ORQALI KOMMUNIKATIV MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI. Научный Импульс, 3(32), 40-43.
2. Ismoilov, T. I. (2018). Provision of information-psychological security in open information systems. Теория и практика современной науки, (1 (31)), 24-26.
3. Kenjaboyev, A., & Kenjaboyeva, D. (2022). Pedagogik deontologiya va kompetentlik. Termiz, "Surxon-nashr" nashr-matbaa markazi nashriyoti.-2022.
4. Rahmonaliyevich, X. I. (2025). Bo 'lajak pedagoglarda kasbiy madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari. Fergana methodical school, (2), 11-17.
5. Azimboyeva, Y. (2024). Bo'lg'usi o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning psixologik jihatlari. Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2(12), 134-140.
6. Shohbozbek, E. (2025). BO'LAJAK PEDAGOGLARNING TADQIQOTCHILIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPSUAL ASOSLARI. Global Science Review, 1(1), 328-338.
7. Gulasal, H., & Ro'ziyeva, D. (2025). BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KO 'NIKMA VA PEDAGOGIK MAHORATNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSLARI. PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI, 14(01), 18-19.
8. Sh, E. (2025). Developing the spiritual worldview of young people through the continuous education system in Uzbekistan. Ob'edinyaya studentov: mejdunarodnye issledovaniya i sotrudnichestvo mejdu distsiplinami, 1(1), 314-316.
9. Olimov, B. (2025). Bo 'lajak boshlang 'ich sinf o 'qituvchilarining mantiqiy kompetentsiyalarini rivojlantirishning elektron metodikasi. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI, 3(9).
10. Islomovich, I. T., & Ravshanbekovich, G. S. (2023). Development of pedagogical competence in future teachers. The American Journal of Management and Economics Innovations, 5(04), 12-16.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, yanvar

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 2-son (yanvar, 2026-yil). – 343 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 22-yanvar

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.